

## GOSPITAL TA'LIMDAGI O'QUVCHILARNI MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISH USULLARI

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
huzuridagi "Meharli maktab" davlat ta'lim muassasasi  
Andijon viloyati filiali umumiy o'rta ta'limni  
tashkil etish bo'yicha pedagog xodim:*

**Xalilov Zuhridin Abduraxim o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gospital ta'limdagi o'quvchilarni matematika faniga qiziqtirishning samarali metodlari va o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllashtirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlari:** gospital ta'lim, mantiqiy fikrlash, zamonaviy ta'lim.

Gospital ta'lim uzoq muddat davomida davolanayotgan va hastaligi sabab ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarga ta'lim berishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir.

Matematikaga bo'lgan qiziqish har bir insonda turlicha shakllanadi, shuning uchun usullarni o'quvchining qiziqishlariga mos ravishda tanlash muhim. Uzoq muddat kasalxonada yoki ambulator sharoitda davolanayotgan bolalar uchun matematikaga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va uni saqlab qolish o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bolalar uchun o'yin shaklidagi ta'lim stressni kamaytiradi va qiziqishni oshiradi. O'yinlar yordamida ular o'zlari sezmagan holda yangi bilimlarni o'zlashtiradilar.

Hozirgi zamonaviylashuv sharoitida ham har bir fan bo'yicha, jumladan, matematika fani bo'yicha gospital ta'lim o'quvchilariga yetarli darajada bilimlar berish asosiy masalalardan hisoblanib, bunga erishishni ta'minlash, matematika fanining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Matematika darslarida har bir matematik xulosa ko'plab tushuncha va qonuniyatlarga asoslanib shakllanadi hamda qat'iy mantiqiy izchillikni talab qiladi.

Gospital maktabda ta'lim oluvchi o'quvchilar ushbu metod va qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganish jarayonida mantiqiy tafakkuri rivojlanadi va matematik xulosa chiqarish madaniyatiga ega bo'lib boradi.

Davolanayotgan bolalar uchun matematik ta'lim maxsus sharoit va ehtiyojlarni inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Ta'limning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, bunday bolalar uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

Gospital ta'limida matematikaga bo'lgan qiziqishni oshirish va samarali yondashuv yaratish uchun quyidagi usullar qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **1. Hayotiy muammolar bilan bog'lash**

Matematikaning tibbiyot, farmatsiya va biotibbiyot sohalaridagi qo'llanilishi tushuntirilsa, talabalar mavzuga qiziqib ketadilar. Masalan:

Statistik tahlil tibbiy tadqiqotlarda qanday ishlatiladi?

Xavf-xatar modellarini hisoblash (epidemiologiya, tashxis qo'yish)

Dori dozalari va ularning hisob-kitoblari

### **2. Vizualizatsiya va texnologiyalardan foydalanish**

Grafik dasturlar (GeoGebra, Desmos) yordamida tushuncha berish

Simulyatsiyalar va interaktiv grafiklar orqali jarayonlarni tushuntirish

### **3. Tibbiyotga oid masalalar va modellashtirish**

Yurak urish chastotasi, qon aylanishi yoki rentgen tasvirlarini tahlil qilish

Gospitalda infeksiya tarqalish modeli

### **4. Gamifikatsiya va o'yin elementlari**

Quizlar, viktorinalar va interaktiv masalalar

“Escape room” uslubi bilan masalalar yechish

Matematik mavzularni rolli o‘yinlar orqali tushuntirish

## **5. Jamoaviy ish va muhokama**

Guruh bo‘lib ishlash, har bir talaba o‘z vazifasiga ega bo‘lishi

Muammolarni muhokama qilib, yechim topishga intilish

Davolanayotgan bolalar uchun matematika ta’limi moslashtirilgan, qiziqarli va motivatsion bo‘lishi lozim. Interaktiv metodlar, texnologik resurslar va hayotiy misollar orqali ular matematikani qulay sharoitda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bizga ma’lumki, matematika darslarida o‘quvchilar o‘qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

O‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash; inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish; o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

“Meharli maktab” da barcha fanlar bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarning (o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, electron darsliklar) yangi avlodi ishlab chiqilgan va ta’lim jarayoniga joriy etilgan. Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha innovatsion metodikalar yaratilgan. O‘quvchilar imkon darajasida mustaqil ravishda qonuniyat munosabatini

ochishi, umumlashtirishi, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishi kerak.

Davolanayotgan bolalarni matematika faniga qiziqtirish uchun darsda foydalaniladigan samarali metodlar va usullar:

### 1. Quvnoq juft sonlarni ko‘paytirish.

Ko‘rib turganingizdek, bu usul har doim barcha sonlarni ko‘paytirishda qo‘llanilmaydi, noan‘anaviyligi ham shunda. Bu usulda bir xil raqamdan tashkil topgan ikki xonali sonlarni birlikda turgan raqamlarini bir-biriga ko‘paytiramiz va chiqqan natijalarni o‘zaro qo‘shamiz. Bu usul o‘quvchilarni matematika faniga qiziqishini orttiradi, bizning maqsadimiz ham shundan iborat. Har doim eski odatiy usullar o‘quvchini fanga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi, noodatiy usullar oz bo‘lsada, o‘quvchiga yangilik olib keladi.

|                                                                                                                                      |                                                                                                   |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|
| $\begin{array}{r} \text{+} \\ \hline 33 * 6 = 198 \\ \text{+} \\ \hline 88 * 4 = 352 \\ \text{+} \\ \hline 77 * 6 = 462 \end{array}$ | $\begin{array}{r} \text{+} \\ \hline 44 * 4 = 176 \\ \text{+} \\ \hline 66 * 6 = 396 \end{array}$ |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|

### 2. Sonlar ketma-ketligini davom ettiring!

$$\begin{array}{c} \text{+} \quad 2 \\ \hline 1, 20, 3, 18, 5, 16, 7, 14, \dots, \dots, \dots, \dots \\ \hline -2 \end{array}$$

Bu keltirilgan misol o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, chunki bu usul mantiqan o‘ylashga, haqiqatni aniqlash yoki to‘g‘ri xulosa chiqarishga asoslanadi.

Sonlarni kichik qismlarga bo‘lib, har bir qismini alohida tahlil qilish masalani sabab va natijalar zanjiri orqali tushunishni ta’minlab beradi.

### **3. Tug‘ilgan kungizni aytib berishga harakat qilaman, ishonmaysizmi, unda boshladik.**

Siz tug‘ilgan kun raqamingizni 2 ga ko‘paytiring, endi chiqqan natijaga 5 ni qo‘shing, natijani 50 ga ko‘paytiring, chiqqan natijaga o‘z tug‘ilgan oyingiz tartib raqamini qo‘shing, masalan mart bo‘lsa 3ni, aprel bo‘lsa 4ni, sentyabr bo‘lsa 9ni. Endi chiqqan natijadan 250 ni ayrib tashlang. Chiqqan natijadan oxirgi ikki raqam sizning tug‘ilgan oyingiz, boshidagi raqam esa tug‘ilgan kuningiz sanasi. Bu qiziqarli masala o‘quvchini matematikaga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi, sababi matematik misol yordamida o‘zi haqidagi ma’lumotni oladi.

### **Xulosa**

Gospital ta’limda yuqori sinf o‘quvchilarini matematika faniga qiziqtirish o‘qituvchining ijodkorligi, innovatsion yondashuvlari va ta’lim jarayoniga moslashuvchan usullarni qo‘llashiga bog‘liq. Ushbu maqolada ko‘rsatib o‘tildiki, o‘quvchilarga motivatsiya berishda yuqoridagi metodlar ahamiyatga ega.

O‘quv jarayoni stresssiz va qiziqarli bo‘lishi kerak. Rag‘batlantirish va maqtov bolalarni dars jarayonida faolroq bo‘lishga undaydi. Kasal bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun pedagoglar va ota-onalar ularga doimiy ijobiy munosabatda bo‘lishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 27-iyuldagi 191- sonli buyrug‘iga ko‘ra DTS talablari
2. Umumta’lim maktablarida matematika o‘qitish masalalari
3. <https://kun.uz/news/2022/05/06/bemor-bolalarga-talim-berish-uchun-mehrli-maktab-muassasasi-tashkil-etildi>



4. Jumayev M.E. va b. Boshlang'ich sinflarda matematika ' oqitish metodikasi. Toshkent., «Fan va texnologiya». 2005.
5. Gospital ta'limda matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolar - Yusupjanova Sh.M 2022 y